



**Teatr san'ati: Estrada aktyorligi san'ati ta'limga yo'nalishiga ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabul qilish imtihoni  
BAHOLASH MEZONI**

Talabgorning quyidagi amaliy ijrosi va nazariy bilimlari uchun umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

<b>Nº</b>	<b>Amaliy ijro</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	<p>Talabgorning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (insoniy jozibadorligi, hislati, tabiat, yoshi, tashqi ko'rinishi, yoqimtoyligi va ichki madaniyati, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta'sirchanligi, hayotiy voqeа va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• masal (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va h.k.); (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• monolog (biron bir pyesadan qahramon monologi); (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• she'r; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• qo'shiq; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• raqs; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• hayvonot olami (hayvonot xulq-atvori) - kuzatishlar asosida etyud; (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• yakka etyud – (yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqeа ko'rinish). (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• estrada nomerlari (raqs, plastika, pantomima, parodiya (taqlid san'ati), sirk nomerlari). (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> </ul>	40
2.	<p>She'r ijrosi, tez aytishning talab darajasida bajarilishi, tasviriy parcha ijro etiladi. Talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi) (bunda, har bir ijro uchun 0-20 balgacha)</p>	20

3.	Vokaldan milliy va xorijiy estrada repertuaridan qo'shiq ijro etiladi. Asar ijrosi orqali ovoz tembri, diapazoni, eshitish qobiliyati, musiqiy savodi, vokal qo'shiqchilik malakalari, vokal asarlarining sof ijrosi, shtrixlarning aniq kuylanishi (legato, stakkato, markato), dinamik tuslarning ifodalanishi, asarning badiiy – ifodaviy ijrosi, konsertmeyster bilan uyg'unlikda ijro etish aniqlanadi (bunda, har bir ijro uchun 0-20 balgacha)	20
<b>Og'zaki</b>		
4.	San'at va madaniyat sohasidagi izchil ijobiy o'zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar xaqidagi tushunchasiga, teatr va estrada san'ati bo'yicha asosiy savollarga to'g'ri orientatsiya qila olishini aniqlash boyicha nazariy 2 ta savolga og'zaki javob uchun (bunda, har bir savolga berilgan javob uchun 0-10 balgacha)	20
<b>Jami</b>		<b>100</b>

### Qo'yilgan talablarga talabgorning javobini baholash mezoni

Nº	Baholash mezonlari	Ball
1.	Tanlangan repertuar: masal, monolog, she'r, qo'shiq, raqs, hayvonot olami kuzatuvi, yakka etyud talab darajasida ijro etishida quyidagicha baholanadi.  Masal (avtor va hayvonlar xarakterini ochish); Monolog (qahramon xarakterini ochish); She'r (badiiy ifodaviylik); Qo'shiq (musiqani eshita olishi, sluxi); Raqs (musiqani eshita olishi, rimga tusha olishi); Hayvonot olami (Hayvonot xulq-atvori) - kuzatishlar asosida etyud; Yakka etyud (Yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqeа ko'rinish); Estrada nomerlari (raqs, plastika, pantomima, parodiya (taqlid san'ati), sirk nomerlari)	1-5 6-10 10-15 15-20 20-25 25-30 30-35 35-40
2.	Nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi; Ovozning sog'lomligi, jarangdorligi, betakrorligi va sohirligi, nutqiy ifodaviylikda talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, sofligi, nutqiy eshitish qobiliyatiga ega ekanligi;  Badiiy so'z ijrochiligi mahoratida she'riy-nasriy asarlar talqinida tabiiylik va ta'sirchanlik, tasavvurning kengligi, faolligi; Badiiy asar g'oyasini mushohada eta olish qobiliyati va adabiy til me'yorlariga amal qilishi.	1-5 6-10 11-15 16-20
3.	Vokaldan asar ijrosi orqali ovoz tembri, diapazoni, eshitish qobiliyati, musiqiy savodi, vokal qo'shiqchilik malakalari, vokal asarlarining sof ijrosi uchun;	1-15

	Shtrixlarning aniq kuylanishi (legato, stakkato, markato), dinamik tuslarning ifodalanishi, asarning badiiy – ifodaviy ijrosi hamda konsertmeyster bilan uyg‘unlikda ijro etish.	15-20
<b>Og‘zaki</b>		
4.	Talabgorning teatr va kino san’ati haqida nazariy bilishi(kino, spektakllar,teatr va kino aktyorlari va rejissyorlari); Talabgorning badiiy adabiyotlarni o‘qiganligi (hikoya, roman, qissa, pyesa);	1-10 11-20

**Qabul komissiyasi mas’ul kotibi**

**S.Turatov**